

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev**

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari ..... 7

**J.E.Tursunov**

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

## FALSAFA, SIYOSAT

**N.S.Normatov, Z.S.Jumanov**

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

**M. B.Xudaybergenova**

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti ..... 26

## TARIHX

**M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov**

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari ..... 30

**O.V.Mahmudov**

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

**N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov**

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni ..... 45

**D.A.Aytimova**

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan ..... 49

**B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov**

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari ..... 54

**Sh.T.Quldashev**

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil ..... 66

**Q.Sulaymonov, D.Madaminov**

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati ..... 72

**Z.N.Xatamova**

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida ..... 76

**I.M.Burxonov**

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi ..... 84

**A.N.Maxmudova**

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari ..... 88

**A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov**

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili ..... 91

**D.A.Ismoilova**

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). ..... 96

**E.L.Gasanov**

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida ..... 101

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**A.G.Sabirdinov**

Mirtemirning she'riy mahorati xususida ..... 106

**Z.A.Rahimov**

Tarixiy romanda syujet va xarakter ..... 110

**F.Isomiddinov**

Irim-sirimlar ..... 115

**D.M.Xoshimova**

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi ..... 120

## MIRTEMIRNING SHE'RIY MAHORATI XUSUSIDA

## О ПОЭТИЧЕСКОМ МАСТЕРСТВЕ МИРТЕМИРА

## ON MIRTEMIR'S POETIC SKILLS

Sabirdinov Akbar Gofurovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Sabirdinov Akbar Gofurovich

– FarDU professori, filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

*Maqolada Mirtemir she'riyatining mavzu ko'lami, badiiyati masalalari yoritilgan. Shoir she'riyatining uslubiy xususiyatlari, tasvir ko'lami tadqiq etilgan. Mirtemir asarlarining XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan.*

**Аннотация**

*В статье освещаются вопросы тематики, художественности поэзии Миртемира. Исследованы стилистические особенности поэзии поэта, масштаб изображения. Показана роль и значение произведений Миртемира в развитии узбекской поэзии XX века.*

**Abstract**

*The article covers the issues of the subject scale and artistry of Mirtemir's poetry. The methodological features of the poet's poetry, the scale of the image were studied. The role and significance of Mirtemir's works in the development of Uzbek poetry of the 20th century is shown.*

**Kalitso'zlar:** she'riyat, mavzu, so'z va ibora, mahorat, tasvir ko'lami, so'z o'yinlari, she'riy matn, ohangdorlik, milliylik.

**Ключевые слова:** поэзия, тема, слово и словосочетание, мастерство, масштаб изображения, словесные игры, поэтический текст, мелодия, национальность.

**Key words:** poetry, theme, word and phrase, skill, image scale, word games, poetic text, melody, nationality.

**KIRISH**

Mirtemir... Bu nom bolaligimizdan ona allasi bilan birga shoir qo'shiqlari orqali qulog'imizga o'nashgan bo'lsa ajab emas. Uning betakror ohang va so'z o'yinlariga boy she'riyati borlig'imizni sehrlab, ohangraboday o'ziga tortgan. Shuurimizga joylashgan. Zamondoshlarining eslashlaricha, Mirtemirning

“Qora ko'zli va gul diydor,  
Bahor chog'i meni yod et!  
Xiyobonda kezar bo'lsang,  
Nahor chog'i meni yod et!  
Qora ko'zli, so'lim dildor.  
Senga aytay sirim oshkor.  
Agar kechsa kechang bedor,  
Sahar chog'i meni yod et!” [1,214]

satrlari urush yillarida yaqinlarini jangohlarga jo'natib, ayriliq alamini tortayotgan ko'plab qiz-juvonlar dardiga malham, jangga otlangan yigitlarga darmon bo'lgan ekan. Hozir ham u muhabbatning abadiyligini tarannum etuvchi dilbar qo'shiqqa aylanib, ko'ngillarimizga singgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mirtemir she'riyatining tili ravon, ohangdor, o'ynoqi so'z o'yinlarini o'ziga singdirgan, tasviriy vositalarga to'la. Shuningdek, Mirtemir she'riyati samimiyati, dilkash tuyg'ularga boyligi bilan jozibadordir. U tilimiz boylıklaridan samarali foydalangan va ularga ijodiy yondashgani holda, o'ziga xos kashfiyotlar qilgan. Zero, “So'zning sehri, mo'jizali va fusunkor kuchi uning tasavvurlar va obrazlarni yuzaga keltirish qobiliyatida aks etadi”[2,195]. Mirtemirning kashfiyot so'zlari she'riy matnga uzukka qo'yilgan qimmatbaho tosh yanglig' mos tushgan, misralarni tovlantirib yuborgan.

Masalan, “Qora dengiz qirg'og'ida...” she'ri

“Jonlarga jon, atri jahon,  
Tong chog'i ham yodimdasen,  
Ne jononga to'lsa dengiz

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Qirg'og'i ham, yodimdasen.  
 Dilni jindek jizillatsa  
 Mung dog'i ham, yodimdasen,  
 Ayovligim, nechun seni  
 Ko'rgim kelur kunda-kunda"

misralaridagi "ayovligim" so'zi chinakam ijodning mahsulidir. "Avaylaganim" so'zining ushbu o'zgacha shaklini yaratish orqali shoir buyuk muhabbatni, mahbubaga bo'lgan yuksak ardoqni ifodalashga erishgan. Shuningdek, she'rdagi "atri jahon", "mung dog'i" kabi iboralar ham mirtemirona topqirlikning mahsulidir. Akademik N.Karimov yozganidek: "1928 yilda Mirtemirning ilk she'rlar to'plami "Shu'lalar qo'ynida" nomi bilan chop etildi. Bu to'plamni tashkil etgan sochmalardagi shoirning o'zi aytgan "jindak pafos shakliy yangilik, optimistik ruh, jindak hayqiriq" she'riyat muhlislariga manzur bo'ldi. Kitob tez orada yosh kitobxonlarning e'tiborini qozondi. Shoirning ustozlari Olim Sharafiddinov va Sotti Husayn esa kitobga yuksak baho berib, Mirtemirning ijodiy istiqboliga katta umid bildirdilar"[3,376]. Ana shu tariqa ijodkor adabiyotimiz osmonini dilbar ohanglarga to'yingan she'rlar bilan boyita boshladi.

Shoir kam iste'molda bo'lgan so'zlardan ham samarali foydalandi. Bu so'zlar o'ynoqi ohangdorlik va tasvir aniqligini, fikrning lo'nda ifodasini ta'minlaydi. Hamid Olimjon vafotining bir yilligi munosabati bilan yozilgan "Shoir qabrida" she'rida bu holni ko'ramiz.

She'ring  
 "Bunda gulzor...  
 G'o'ra bo'libdi o'rik,  
 Bunda qush qo'shig'in tonggi hijjasi...  
 Boshingni ko'tar qoqindiq,  
 Juda sog'indik..."

misralaridagi bo'g'inlab o'qimoq, bo'g'inlab talaffuz qilmoq ma'nolarini anglatuvchi "hijja" so'zi tonggi qush sayrashiga nihoyatda mos bo'lsa, "qoqindiq" so'zi ham mirtemirona mehr ifodasiga mutanosibdir.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yurtimiz kengliklari, betakror tabiati Mirtemir she'riyatida o'zgacha muhabbat bilan tasvirini topgan. Uning har yassi tepasida, qishlog'ida alvon lolalarida yurtni turli bosqinchilardan himoya qilib, shahid ketgan bobolarimiz xoki, qoni ("Lolazorlardan o'tganda...") bor. Shu bois, uning har qarichi aziz, muqaddas: "Oyni etak bilan to'sib bo'lurmi? Tutatqi bo'lurmi yulduz cho'g'ida? Ayting-chi, mard odam aslo o'larmi? Nomi qolur yurt qo'shig'ida..." ("Yurt qo'shig'i") satrlarida yurt ozodligi uchun jon fido etganlarning nomi abadiydir, degan xulosaga keladi.

Turkiston kengliklarining bepoyonligi, parrandayu darrandalari, nabototu hayvonot olami bor go'zalligi bilan Mirtemir she'rlarida aks etgan. Yurtning har fasli o'ziga xos, betakror ranglar jilosiga ega:

"Har yaproq, har novda, norasida shox  
 Bahor og'ushida rozi, bearmon.  
 Gullar jilvasidan tovlanadi bog',  
 Gunafsha, gulsafsar pushti, naparmon" ("Seni bolaligim...");  
 "Yoz keldi, jo'ralar, o'lkamizda yoz,  
 Bog'larda sayrashur qushlar xushovoz,  
 Dalalar yam-yashil, tepalar yashil,  
 Hovliqma jilg'alar, oh, negadir soz!" ("Yoz");  
 "Janub dalalari – jimjima barqut,  
 Unda yemishlarning t uslari gul rang.  
 Tong otgan damlarda ufqlar yoqut,  
 Kechasi keng osmon bulut-la, kul rang" ("Qirg'oq");  
 "Tolzor kuz rangida, butoqlar –  
 Bari kiymish yoqut sarupo.  
 Ko'zni aldar xil-xil bo'yoqlar.  
 Oh, na dilrabo!" ("Qoya")

misralarida shoir tabiatidagi ranglar jilosini nozik ilg'ab she'rlariga olib kiradi.

Mirtemir ijodida qisqa she'rlar ko'p emas. Ular Vatanga bo'lgan ulkan mehr bilan to'la shoir ko'ngli monand keng. She'rlarning ko'pchiligi tabiatning mo'jizaviy olamiga, undagi davom etayotgan hayot uchun kurashlar, tinimsiz harakat va o'zgarishdagi borliq tasviriga bag'ishlangan. Yurtimiz sarhadlari Mirtemir she'riyatida yanada kengayib, ulkanlashib ketadi go'yo. O'lkamizning har bir toshiyu daryolari, hashoratu parrandalari, tabiatu nabototiga sinchkovlik bilan nazar tashlab, ularni mehr bilan she'riga olib kirgan Mirtemir singari ijodkorlarni XX asr o'zbek adabiyotida kam uchratamiz. "Asarlariga so'zlarni uzukka ko'z qo'ygandek joylashtira olish, satrlarni bandga marjonday tera bilish, she'riy kontekstda har bir so'zni sozlangan rubob toriday jarang sochtirib, ohang va ma'no salmog'ini yuzaga keltirish hassos ijodkor uslubiga xos jihatlardandir"[4,558].

Mirtemir she'riyati lirik qahramoni yurtning tanti o'g'loni. U go'zal qizlarga adoqsiz muhabbati, yurtdoshlarimizga, tabiatimizga ulkan mehri bilan yagona. Uningcha, yurt qizlari go'zallikni tabiatimizdan olgan. O'lkamiz go'zalligi ular husnida aks etgan:

"Bu kecha uxlamay tonggacha kutib, qirg'oqda turdim.

Tong otdi, tong bilan qumloq sohilda

Tongdan ham chiroyli bir qizni ko'rdim.

Tong shu'lasida – sochin har bir tolasi.

Yuzlari go'yoki tog'lar lolasi.

Husni – tong husniday toza va tengsiz,

Suluv tabiatning so'lim bolasi" ("Tongdan ham chiroyli").

Tasvir ko'laminin kengligi, aniqligi, izchilligi, timsol va tafsillarning sanjabligi bilan ajralib turadigan shoir she'riyati xalqona ohangi va ifodasi, milliy va umumbashariy mohiyati bilan o'quvchini sehrlaydi. Mehri daryo kishilarimizning betakror qiyofasi, saxiy tabiatimizning rangin chizgilari mirtemirona so'z va iboralar vositasida aksini topadi.

O'zbek mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodi, Sharq va G'arb adabiyotining bilimdoni bo'lgan shoir o'z asarlarida barhayot an'analardan samarali foydalandi. Nekbin, samimiy, dilkash tuyg'ular favvorasi mavjlanib turgan she'riyatni adabiyotimizga tuhfa etdi. Masalan, hazrat Alisher Navoiy g'azallariga xos bo'lgan fikrni bandlar davomida turli hayotiy obraz va detallar vositasida dalilab xulosa chiqarish xususiyatini Mirtemirning "Sehr" she'rida kuzatamiz. Oqshomda taralgan nayning navosi lirik qahramonni olis xotirotda – sevishtganlar uchrashuviga yetaklaydi. Shoir tabiatning farahbaxsh, rangin, oniy, betakror manzaralarini mohir musavvir kabi chizar ekan, she'rda oy nurlariga burkangan borliq butun tarovati bilan namoyon bo'ladi:

"Oqshom salqini tushar

Nay navosi taralur.

Nay avjida sehrgar

O'zga olam yaralur.

Sehri manzaralar

Ko'rinur u olamdan,

Daralar, sharsharalar

Ko'rinur u olamdan.

Qorli tog' siynasidan

Sharqiroq soy ko'rinur

Chinorlar tepasida

Yarqiroq oy ko'rinur".

Tasvir ana shu tarzda nay navosiga yo'g'rilib yuksalikka o'rlab boradi. Shoiring nigohi daralar, sharsharalardan qorli tog' cho'qqilariga, undan oyga o'tib, yana yerga qaytib tushadi:

"To'lin oy shu'lasida

Oydek yorqin oq qoya,

Chinor ko'lankasida

Kimni kutar toq soya?

Soy bo'yida shu asov

Soy singari beqaror,

Yo'lga tikilar birov,

Yoniq ko'zlar kimga zor?".

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Ritorik so'rovlarda beqaror, asov soya, yoniq ko'zlar kimniki ekani, uning kimga zorligi ayon etilmaydi. Shu orqali tasvirda sirlilik, "tugun" paydo bo'ladi. Bu holat esa, qiziqishimizni yanada oshiradi. Shabadali havodagi orombaxsh bo'yni his etamiz. Soyning beqaror, asov oqishi "toq soya" holati bilan uyg'unlashib, yuragimizda aks-sado bera boshlaydi. Shoir nigohi yana "intiq soya" tasviri bilan ko'kka ko'tariladi: "Oy ohista yuzmoqda Tagsiz moviy samoda, Shundog'am sehr bo'y bor Shabodalik havoda". Spiralsimon harakatdagi tasvir pastga – intiq yurak monand titrayotgan chinor yaproqlariga, ular ostida hayajon titrog'idagi "toq soya"ga tushib keladi: "Intiq yurakday titrar Ko'k chinorda har yaproq, Hamon sharpasiz va bo'sh Sirli tun, sirlik so'qmoq. To'lin oy shu'lasida Oydek yorqin oq qoya. Chinor ko'lankasida Hanuz o'sha toq soya". Sirli tun va sirli so'qmoq qoshidagi sirli "soya"ning mushtiq bo'lib kutayotgani kelarmikan? Tasvir va fikr torlari tobora taranglasha boradi. Vafoning mangu haykaliga aylangan "toq soya"ning sanami nihoyat yuz ko'rsatadi: "Tong yaqin. Hulkar yanglig' Yarqirab kelur sanam. Visol damlari misol Jannat bo'lmas chinakam... Nay navosi taralur, Nay navosi taralur, Nay avjida xotiro – O'zga olam yaralur".

Muhabbat va vafoga bag'ishlangan simfoniyaning eslatuvchi ushbu she'r tasvir kengligi, yorqinligi, tiniqligi bilan jozibadordir. Xotiro orqali she'rda jonlangan o'zga olam esa nay navosidek azaliy, adabiy. Unda insoniyat tarixi, hoziri, kelajagi mujassam. She'rning timsollar va tafsillar shodasi bilan bezangan misralari bir-birini to'ldirib, zanjir monand bog'lanib ketadi. Salqin oqshom, nay navosi, sehrigar olam, daralar, sharsharalar, qorli tog', to'lin oy, chinor ko'lkasi, toq soya, moviy samo, shabadali havo, chinor yaprog'i, sirli tun, sirli so'qmoq, oq qoya, tong pallasi, yarqiroq sanam, visol damlari, xotiro – o'zga olam tasvirlari uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, Hamid Olimjon asarlarida tabiat va inson tasviriga parallel murojaat etsa, Oybek kechinmalari tasviridan tashqi olamga chiqib boradi. Mirtemir esa tashqi olam orqali inson borlig'iga nazar tashlaydi. Obrazlar tizimidan iborat yuqoridagi she'rni o'qirkanmiz, Mirtemirning quyidagi so'zlari yodimizga keladi: "Qofiyani qofiyaga urishtirishda she'r emas, juda omadi kelganda, nazm paydo bo'ladi. Xolbuki, haqiqiy she'r timsollari silsilasidan dunyoga keladi".

**XULOSA**

Mirtemirning sehrli she'riy olami bizni ana shu tarzda tabiatning ranglari, iforlari, shu'lalari, mo'jizalari bag'riga olib kiradi. Tabiatning ajralmas bo'lagi ekanimizni doimo anglatib turadi.

Atoqli adib Ch.Aytmatov: "Biz Mirtemir siymosida o'zbek adabiyotini qadrlar edik", deb yozgandi. Darhaqiqat, qadri baland adabiyotimizning yorqin siymosi bo'lgan Mirtemir she'riyati ko'plab avlodlarga mahorat maktabi bo'lib qolishi shubhasizdir.

**Adabiyotlar**

1. Миртемир. Танланган асарлар. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1958.
2. Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008.
4. Sabirdinov A. Analysis Of Poem "Autumn Dreams by Abdulla Oripov"// The American journal of social science and education innovation. (Tajssei) SJIF-5.857. DOI-10.37547/ TAJSSSEI. Volume 3 Issue 01, 2021. The USA Journals, USA.